



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 6-SON

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Sultonov Husan

XVIII–XIX ASR XORIJIY MANBALARIDA XORAZM SHAHARLARINING TAVSIFI6-10

Egamberganova Zulayxo

XORAZM O'ZBEKLARI OILAVIY MAROSIMLARINING DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR
ASOSIDAGI ETNOMADANIY TALQINI 11-14

Rajabova Surayyo

XORAZM VOHASI ANTIK DAVR XO'JALIK HAYOTINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI
MASALALARI 15-18

Ro'zmetov Jahongir

XORAZM SAVDOGARLARINING O'RTA ASRLARDA DASHT KO'CHMANCHILARI BILAN
ALOQALARI: ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR TAHLILI 19-23

Yuldashev Suhrobjon

NIKOLAY IVANOVICH VAVILOVNING XORAZM EKSPEDITSIYASI: O'SIMLIK GENETIK
RESURSLARINI O'RGANISH TARIXI VA ILMIY AHAMIYATI 24-33

Mavlonova Mohinur

MA'MUNIYLAR DAVRIDA XORAZM IJTIMOY HAYOTI, URF-ODATLARI VA
MADANIYATI 34-38

Ozodova Go'zalxon

ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VA TURK XOQONLIGI MUNOSABATLARI
TARIXSHUNOSLIGI 39-44

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

INGLIZ YURIDIK TERMINLARINING O'ZBEK TILIGA O'ZLASHISHI: LEKSIK-SEMANTIK VA
TIPOLOGIK TAHLIL 45-49

YURIDIK FANLAR

Xujabekov Umidjon, Xujanova Munisa

STARTAPLAR VA VENCHUR KAPITAL: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI 50-55

Xursanova Fotima

ENTERPRISE UZBEKISTAN AND THE TRANSPLANTATION OF ENGLISH CONTRACT LAW:
A NEW FRONTIER FOR COMMON LAW IN CENTRAL ASIA 56-63

YURIDIK FANLAR – LAW

*Article / Original Paper***STARTAPLAR VA VENCHUR KAPITAL: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI****Xujabekov Umidjon Uchkun o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: umidjonkhujabekov@gmail.com**Xujanova Munisa Sherzod qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: munisakhujanova@gmail.com**Ilmiy Rahbari: Rahimjonov Akmaljon Baxromjon o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakultet "Huquqiy fanlar" kafedrası kata o'qituvchisi yu.f.f.d

E-mail: akmaljonrahimjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada startaplar va venchur kapitalni huquqiy tartibga solishning nazariy hamda amaliy masalalari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat, investitsiyalar, IT Park va innovatsion rivojlanish sohasidagi normativ-huquqiy bazasi asosida startap ekotizimining huquqiy holati baholanadi. Xorijiy tajriba sifatida Buyuk Britaniyaning EIS modeli, Singapurning Startup SG Equity mexanizmi, shuningdek SAFE va standart venchur hujjatlari amaliyoti ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda startap va venchur kapital faoliyatiga oid maxsus huquqiy rejimni shakllantirish, investitsiya instrumentlarini normativ mustahkamlash hamda intellektual mulk himoyasini kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: startap, venchur kapital, investitsiya shartnomasi, SAFE, konvertatsiya qilinadigan instrumentlar, intellektual mulk, IT Park, innovatsion faoliyat.

LEGAL REGULATION OF STARTUPS AND VENTURE CAPITAL**Umidjon Khujabekov Uchkun ugli**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Jurisprudence: Business Law 3rd-year Student

Munisa Khujanova Sherzod qizi

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Jurisprudence: Business Law 3rd-year Student

Scientific Supervisor: Rahimjonov Akmaljon Bahromjon ugli

Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Lecturer of the "Legal Sciences" Department Faculty of Social Sciences

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Annotation. This article examines theoretical and practical issues of legal regulation of startups and venture capital. Based on the legislation of the Republic of Uzbekistan in the fields of innovation, investment, IT Park regulation, and innovation policy, the current legal status of the startup ecosystem is assessed. Foreign experience is analyzed through the UK EIS model, Singapore's Startup SG Equity mechanism, as well as SAFE and standard venture financing documents. The article argues for establishing a special legal regime for startups and venture capital in Uzbekistan, clarifying investment instruments, and strengthening intellectual property protection.

Key words: startup, venture capital, investment agreement, SAFE, convertible instruments, intellectual property, IT Park, innovation activity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i6v2y2026/n09>

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotda startaplar innovatsion o'sishning, venchur kapital esa yuqori xavfli, biroq yuqori rentabellik potentsialiga ega loyihalarni moliyalashtirishning muhim institutsional vositasi hisoblanadi. Ayniqsa raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, platforma xizmatlari va ilmiy-texnologik tadbirkorlik rivojlanayotgan sharoitda mazkur institutlarning huquqiy tartibga solinishi davlatning investitsiyaviy jozibadorligi va innovatsion salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni innovatsiya, innovatsion infratuzilma va innovatsion loyiha tushunchalarini belgilaydi hamda innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni asosiy prinsiplardan biri sifatida e'tirof etadi [1; 3-4-moddalar]. Shu bilan birga, amaldagi umumiy innovatsion qonunchilikda "startap" va "venchur kapital" tushunchalari mustaqil, universal huquqiy kategoriya sifatida to'liq shakllantirilmagan.

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda investitsiyalar tarkibiga ulushlar, aksiyalar, qarz majburiyatlari hamda intellektual mulkka doir huquqlar kiritilgan bo'lsa-da, pay va venchur fondlari, kapital bozori hamda u bilan bog'liq operatsiyalar alohida qonunlar bilan tartibga solinishi ko'rsatilgan [2; 1, 3, 6-moddalar]. Bu esa startaplarni moliyalashtirishga doir maxsus huquqiy mexanizmlar umumiy investitsiya qonunchiligidan tashqarida qolayotganini anglatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi startaplar va venchur kapitalni huquqiy tartibga solishning mavjud holatini tahlil qilish, huquqiy bo'shliqlarni aniqlash va xorijiy tajriba asosida O'zbekiston uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Startap tushunchasi va uning huquqiy tabiati

O'zbekiston qonunchiligida startap tushunchasining nisbatan aniqroq ifodasi IT Park faoliyatini tartibga soluvchi nizomda uchraydi. Unga ko'ra, "startup project" dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari sohasida yangi mahsulot yaratish yoki xizmat joriy etishga qaratilgan, rentabellik noaniq va moliyaviy xatari yuqori bo'lgan loyiha sifatida tavsiflanadi [5; 2-band]. Mazkur ta'rif startapning iqtisodiy mohiyatini ancha to'g'ri aks ettiradi: yangilik, yuqori risk, tez o'sish imkoniyati va bozordagi noaniqlik.

Biroq ushbu ta'rifning asosiy cheklovi shundaki, u sektoriy xarakterga ega, ya'ni asosan IT Park doirasidagi loyihalarga tatbiq etiladi. Vaholanki, startaplar biotexnologiya, medtech, fintech, edu-tech, agritech va boshqa ko'plab tarmoqlarda ham shakllanishi mumkin. Demak, startap tushunchasining yagona umumrespublika huquqiy ta'rifi yo'qligi normativ parokandalikni yuzaga keltiradi.

“Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda esa innovatsion infratuzilma, texnologiyalar transferi va yangi ishlanma kabi kategoriyalar mustahkamlangan bo‘lib, ular startup faoliyati uchun institutsional asos yaratadi [1; 3-modda]. Davlat innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashni huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, soliq va bojxona imtiyozlari berish orqali amalga oshirishi belgilangan [1; 10-modda]. Demak, startaplar uchun bilvosita normativ asos mavjud, lekin maxsus rejim hali to‘liq shakllanmagan.

Venchur kapitalning huquqiy mazmuni va investitsiya mexanizmlari

Venchur kapital startupning dastlabki yoki o‘shir bosqichlarida, odatda yuqori xavf evaziga ulushli daromad olish maqsadida kiritiladigan professional investitsiya shaklidir. Jahon banki ekspertlari ta’kidlaganidek, samarali venchur kapital rejimi venchur fondlari, fond boshqaruvchilari va venchur investitsiyalarni qamrab oluvchi alohida huquqiy-regulyativ tizimga ega bo‘lishi lozim [9; p. 72]. Bunday rejim investorlarning cheklangan javobgarligini, fond boshqaruvchining rolini, investitsiya mezonlarini, divestitsiya talablarini hamda soliq rejimini aniq belgilashi kerak [9; pp. 72–73].

O‘zbekistonning amaldagi investitsiya qonunchiligida investitsiyalarni ulush sotib olish, qimmatli qog‘ozlar olish, intellektual mulk huquqlarini olish va boshqa shakllarda amalga oshirish mumkinligi nazarda tutilgan [2; 6-modda]. Ammo venchur kapitalga xos bo‘lgan “seed”, “early-stage”, “growth-stage” investitsiyalar, preferensiyali aksiyalar, likvidatsion imtiyozlar, anti-dilution, drag-along, tag-along, vesting, option pool kabi instrumentlar alohida tartibda tizimlashtirilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, venchur kapital munosabatlarining huquqiy tabiatini faqat umumiy fuqarolik-huquqiy yoki korporativ qoidalar asosida hal etish yetarli emas. Chunki venchur moliyalashtirishning asosiy belgisi — bu nafaqat kapital kiritish, balki boshqaruvda ishtirok, tavakkalni shartnomaviy taqsimlash va kelajakdagi “exit” mexanizmlarini oldindan belgilashdir.

Venchur shartnomalari va standart hujjatlar amaliyoti

Xalqaro amaliyotda venchur moliyalashtirish, odatda, standartlashtirilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. AQShda NVCA Model Legal Documents venchur bitimlari uchun keng qabul qilingan sanoat standarti bo‘lib, ular tranzaksiya xarajatlari va vaqtini kamaytirish, bozor normalarini shakllantirish va amalga oshirib bo‘lmaydigan shartlardan qochishga xizmat qiladi [10]. Bu yondashuv huquqiy aniqlikni oshiradi va investor hamda asoschi o‘rtasidagi muzokaralarni soddalashtiradi.

Dastlabki bosqich moliyalashtirishda keng qo‘llaniladigan vositalardan biri SAFE — “Simple Agreement for Future Equity” hisoblanadi. Y Combinator qo‘llanmasiga ko‘ra, post-money SAFE’ning eng katta afzalligi investor va asoschi uchun sotilayotgan ulush hajmini oldindan aniq va hisoblab bo‘ladigan darajada shaffof qilishidir [11; p. 1]. Mazkur instrument bitta sodda hujjatga asoslangan bo‘lib, muzokara xarajatlarini kamaytiradi, moliyalashtirishni tezlashtiradi va eng muhimi, unda konvertatsiya qilinadigan qarzlardan farqli ravishda muddat yoki foiz majburiyati mavjud emas [11; pp. 3–5, 9].

O‘zbekiston huquqida esa SAFE, convertible notes yoki shunga o‘xshash gibril investitsiya instrumentlarining aniq normativ maqomi mustahkamlanmagan. Bu amaliyotda ikki muammo tug‘diradi: birinchidan, investorning huquqlarini oldindan himoyalash qiyinlashadi; ikkinchidan, startup bahosi hali shakllanmagan erta bosqichda an’anaviy ulushli

bitimlar ortiqcha xarajat va nizolar manbai bo'lishi mumkin. Shuning uchun mazkur instrumentlarni milliy fuqarolik va korporativ qonunchilikka moslashtirish dolzarbdir.

Intellectual mulk huquqlarini himoya qilishning markaziy o'rni

Startaplar uchun asosiy aktiv ko'pincha moddiy mol-mulk emas, balki intellektual mulkdir. WIPO qo'llanmasida qayd etilishicha, startap investitsiya izlayotganida investor, avvalo, uning intellektual mulk landshaftini o'rgangan-yo'qligi va o'z aktivlarini himoya qilish choralari ko'rganiga e'tibor qaratadi [8; pp. 46–47]. Intellektual mulkning baholanishi kompaniya qiymatini oshiradi, natijada asoschilar bir xil investitsiya evaziga ko'proq ulushni saqlab qolishi mumkin [8; p. 47].

WIPO patent, tijorat siri, mualliflik huquqi, tovar belgisi va sanoat namunasi kabi vositalarni startaplar uchun asosiy huquqiy himoya instrumentlari sifatida ko'rsatadi [8; pp. 9–10]. Shu jihatdan, startapni huquqiy tartibga solish faqat investitsiya shartnomalari bilan cheklanib qolmasligi, balki intellektual mulk portfeli, xodimlar bilan tuziladigan IP assignment bitimlari, litsenziyalash va due diligence mexanizmlarini ham qamrab olishi lozim.

O'zbekistonning innovatsion faoliyatga oid qonunchiligi innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni prinsip darajasida tan oladi [1; 4-modda]. PF-165-son Farmonda esa innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini, jumladan venchur tashkilotlari, startap akseleratorlari va inkubatorlarini shakllantirish, shuningdek yangi ishlanmalarni patentlash va tijoratlashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish vazifalari belgilangan [3; 2, 5–6-bandlar]. Bu normativ yondashuv ijobiy bo'lsa-da, amaliyotda IP'ni tezkor ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va investor due diligence jarayonlarini soddalashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

O'zbekistondagi institutsional rivojlanish va mavjud bo'shliqlar

So'nggi yillarda O'zbekistonda startap ekotizimini shakllantirish bo'yicha muhim institutsional qadamlar tashlandi. IT Park rezidentlarga infratuzilma, maslahat, investitsiya jalb qilishda ko'mak, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash va venchur moliyalashtirish asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi platforma sifatida faoliyat yuritmoqda [5; 3, 5–6-bandlar]. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi ham startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va venchur tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi [3; 2-band].

Bundan tashqari, 2024-yil 14-oktabrdagi Prezident qarori startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirishga alohida bag'ishlangan mustaqil hujjat sifatida qabul qilindi [4]. Mazkur hujjatning qabul qilinishi o'ziyoz sohaning endilikda umumiy innovatsion siyosat ichidagi ikkilamchi masala emas, balki alohida tartibga solish obyektiga aylanganini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, quyidagi tizimli bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, "startap", "venchur kapital fondi", "farishta investor", "SAFE", "convertible note" kabi kategoriyalarni qamrab oluvchi yagona maxsus qonun mavjud emas. Ikkinchidan, investitsiya va korporativ huquqdagi umumiy normalar venchur moliyalashtirishning dinamik xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi. Uchinchidan, startaplar uchun "exit" mexanizmlari, ayniqsa M&A va IPO bilan bog'liq korporativ-huquqiy soddalashtirilgan yo'llar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun ahamiyati

Buyuk Britaniya tajribasi investorlarni rag'batlantirishning soliq-huquqiy modelini ko'rsatadi. Enterprise Investment Scheme kompaniyalarga investorlar uchun soliq yengilliklari

taklif etish orqali kapital jalb qilish imkonini beradi; bunda kompaniya doimiy faoliyat yuritishi, fond bozori talablari, mustaqillik mezonlari va aktiv hamda xodimlar soniga oid shartlarga javob berishi kerak [6]. Bu model venchur investitsiyani rag'batlantirishda fiskal vositalarning samaradorligini ko'rsatadi.

Singapurda Startup SG Equity dasturi hukumatning malakali uchinchi tomon investorlar bilan birgalikda co-investment mexanizmini yo'lga qo'yganini ko'rsatadi. Shuningdek, VCFI rejimi venchur fondlar daromadlari bo'yicha soliq imtiyozlari va fond boshqaruvchilari uchun preferensial stavkalarni nazarda tutadi [7]. Mazkur tajriba davlatning to'g'ridan to'g'ri bozorga aralashuvi emas, balki riskni bo'lishish va xususiy kapitalni safarbar etish modeli sifatida e'tiborlidir.

O'zbekiston uchun ushbu tajribadan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, muvaffaqiyatli startap ekotizimi uchta tayanchga ega bo'lishi kerak: birinchisi — aniq huquqiy ta'rif va maxsus rejim; ikkinchisi — investor uchun tushunarli va himoyalangan shartnomaviy muhit; uchinchisi — intellektual mulk va soliq rag'batlari bilan mustahkamlangan institutsional ekotizim.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda startaplar va venchur kapitalni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan normativ asosning muhim elementlari allaqachon mavjud. Xususan, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, investitsiya shakllarini tan olish, IT Park infratuzilmasi, startap va venchur moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik hujjatlar shakllangan [1; 10-modda], [3; 2, 5–6-bandlar], [5; 3-band], [4].

Biroq bu elementlar yagona tizimga birlashtirilmagan. Startapga universal huquqiy ta'rif berilmaganligi, venchur fondlar va farishta investorlar maqomining maxsus darajada belgilanmagani, SAFE va konvertatsiya qilinadigan qarz kabi instrumentlarning huquqiy rejimi yo'qligi huquqiy noaniqlikni saqlab qolmoqda. Investor uchun standart hujjatlar amaliyotining yetarlicha rivojlanmagani ham bitim xarajatlarini oshiradi [10], [11; pp. 3–5].

Shu sababli O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda normativ takomillashtirish zarur: startap va venchur kapitalga bag'ishlangan maxsus qonun qabul qilish; SAFE va boshqa konvertatsiya qilinadigan instrumentlarni fuqarolik-huquqiy va korporativ-huquqiy jihatdan tan olish; venchur fondlar uchun maxsus ro'yxatdan o'tkazish va soliq rejimini joriy etish; investorlar huquqlarini himoya qiluvchi standart shartnoma modellari va due diligence mexanizmlarini ishlab chiqish; IP aktivlarini tezkor himoya qilish va tijoratlashtirish protseduralarini soddalashtirish.

Xulosa.

Startaplar va venchur kapitalni huquqiy tartibga solish masalasi O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida markaziy ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilik mazkur soha uchun muayyan bazani yaratgan bo'lsa-da, u ko'proq parchalanib ketgan va umumiy ko'rinishga ega. Startap ekotizimi esa o'z tabiatiga ko'ra tezkor, moslashuvchan va yuqori riskli bo'lgani uchun unga nisbatan maxsus normativ yondashuv talab etiladi.

Ilmiy tahlil asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonda startap va venchur kapital sohasini rivojlantirishning eng maqbul yo'li — bu maxsus huquqiy rejim yaratish, xalqaro amaliyotdagi standart venchur hujjatlarini moslashtirish, investorlar uchun soliq-huquqiy rag'batlarni kuchaytirish va intellektual mulkni investitsiya obyektiga aylantirishdir. Ana shundagina startaplar iqtisodiy o'sishning real drayveriga, venchur kapital esa innovatsiyalarni tijoratlashtirishning samarali mexanizmiga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Innovatsion faoliyat to'g'risida", O'RQ-630, 24.07.2020. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4910391>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida", O'RQ-598, 25.12.2019. URL: <https://lex.uz/docs/-4664142>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", PF-165, 06.07.2022. URL: <https://lex.uz/docs/-6102462>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Startup loyihalar va vechur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-357, 14.10.2024. URL: <https://www.lex.uz/en/docs/7157438>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 589-son, 15.07.2019. URL: <https://lex.uz/docs/6957374>
6. GOV.UK. Venture capital schemes: apply for the Enterprise Investment Scheme. URL: <https://www.gov.uk/guidance/venture-capital-schemes-apply-for-the-enterprise-investment-scheme>
7. Enterprise Singapore. Join Startup SG. URL: <https://www.enterprisesg.gov.sg/grow-your-business/partner-with-singapore/innovation-and-startups/join-startup-sg>
8. WIPO. Enterprising Ideas: A Guide to Intellectual Property for Startups. Geneva, 2021. URL: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_961.pdf
9. World Bank / infoDev. Enhancing Access to Finance for Technology Entrepreneurs. Washington, 2014. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/111421468021546796/pdf/915620WP0Box370nology0Entrepreneurs.pdf>
10. NVCA. Model Legal Documents. URL: <https://nvca.org/model-legal-documents/>
11. Y Combinator. Primer for Post-Money SAFE v1.1. URL: [https://www.ycombinator.com/assets/ycdc/Primer for post-money safe v1.1-2af8129e12effd9638eeab383b7309142c8f415e5cdb0bc210d573f779177a1c.pdf](https://www.ycombinator.com/assets/ycdc/Primer%20for%20post-money%20safe%20v1.1-2af8129e12effd9638eeab383b7309142c8f415e5cdb0bc210d573f779177a1c.pdf)

HUMANSIENCES.UZ

№ 6 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com